



SOTSIOLINGVISTIKADA DIGLOSSIYA TUSHUNCHASINING AHAMIYATI

Sharofova Shaxrinoz

*Kattaqo'rg'on davlat pedagogika institute Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada sotsiolingvistikaning muhim tushunchalaridan biri bo'lgan diglossiya hodisasining nazariy mohiyati va ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Diglossiya jamiyatda til yoki til shakllarining funksional jihatdan tabaqalanib qo'llanishini ifodalovchi hodisa sifatida talqin qilinadi. Maqolada diglossiyaning paydo bo'lish omillari, yuqori va quyi til variantlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, diglossiya tushunchasining sotsiolingvistik tadqiqotlardagi o'rni va amaliy ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *sotsiolingvistika, diglossiya, subkod, til siyosati, jamiyat, ko'p tillilik, zullisonayn, kommunikativ vaziyat, sheva.*

ABSTRACT: *This article discusses the theoretical essence and social significance of the phenomenon of diglossia, one of the important concepts of sociolinguistics. Diglossia is interpreted as a phenomenon that expresses the functionally differentiated use of language or language forms in society. The article analyzes the factors of the emergence of diglossia, the specific features of high and low language variants, and their impact on communicative processes in society. The role and practical significance of the concept of diglossia in sociolinguistic research are also revealed.*

Keywords: *sociolinguistics, diglossia, subcode, language policy, society, multilingualism, zullisonayn, communicative situation, dialect.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье рассматривается теоретическая сущность и социальное значение феномена диглоссии, одного из важных понятий социолингвистики. Диглоссия интерпретируется как феномен, выражающий функционально дифференцированное использование языка или языковых форм в обществе. В статье анализируются факторы возникновения диглоссии, специфические особенности высоких и низких языковых вариантов и их влияние на коммуникативные процессы в обществе. Также раскрывается роль и практическое значение понятия диглоссии в социолингвистических исследованиях.*

Ключевые слова: *социолингвистика, диглоссия, субкод, языковая политика, общество, многоязычие, зуллисонайн, коммуникативная ситуация, диалект.*

Sotsiolingvistika til va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganadigan tilshunoslik sohasi bo'lib, unda tilning ijtimoiy funksiyalari, qo'llanish doirasi va shakllari muhim o'rin tutadi. Ushbu fan doirasida muhim tushunchalardan biri — diglossiya hisoblanadi. Diglossiya jamiyatda bir tilning yoki bir-biriga yaqin ikki til shaklining turli ijtimoiy vaziyatlarda funksional jihatdan farqlanib qo'llanishini ifodalaydi. Mazkur



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tushuncha tilning ijtimoiy tabaqalanishi, nutq madaniyati hamda kommunikativ jarayonlarni anglashda katta ahamiyatga ega. Diglossiya muammosini o‘rganish til siyosati, til madaniyati va nutq normalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ko‘p qatlamli jamiyatlarda diglossiya hodisasi tilning funksional imkoniyatlarini, uning ijtimoiy mavqeini aniqlashda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur maqolada diglossiya tushunchasining sotsiologik ahamiyatini yoritish dolzarb masala sifatida qaraladi.

Diglossiyasi (yunincha, di — “ikki” va gloss — “til”) deganda bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olish, sharoit va muloqot doirasiga bog‘liq holda tilning bir subkodidan ikkinchi bir subkodiga ko‘chish, bir til doirasidagi turli uslublardan foydalana olish tushuniladi. “Diglossiya” termini nafaqat bir milliy tilning turli subkodlarida gapirishni, balki turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga ko‘ra galma-gal qo‘llay olishni ham anglatishi mumkin. Masalan, italyan tili sohiblari uyda, do‘stlar doirasida mahalliy dialektni qo‘llashadi, biroq boshqa dialekt vakillari bilan muloqot qilishganda yoki ommaviy chiqishlarida adabiy tildan foydalanishga o‘tishadi. Bunday hodisani xorazmliklar nutqida ham kuzatish mumkin. Xorazm shevasi aksariyat hollarda xorazmliklar orasida qo‘llaniladi. Xorazmliklar boshqa sheva vakillari bilan muomalada bo‘lganda yoki Toshkentda (yoki boshqa viloyatlarda) yashashganda adabiy tilda so‘zlashadilar.

“Diglossiya” termini nafaqat bir milliy tilning turli subkodlarida gapirishni, balki turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga ko‘ra galma-gal qo‘llay olishni ham anglatishi mumkin. Diglossiyaning muhim sharti – so‘zlovchilarning ongli ravishda turli kommunikativ vositalardan birini tanlashi va uni muloqot uchun muvaffaqiyatli qo‘llay olishi. “Diglossiya” termini ilmiy muomalaga amerikalik tadqiqotchi C. A. Ferguson tomonidan 1959-yilda kiritilgan. Bungacha tilshunoslikda xalqaro “bilingvizm” va uning muqobili “ikki tillilik” ya’ni zullisonayn terminlari qo‘llanilgan.

Ko‘p tillar mavjud bo‘lgan holatlarga nisbatan “ko‘p tillilik” terminidan foydalaniladi. “Ikki tillilik” va “ko‘p tillilik” terminlarining nomlaridan ham ko‘rinib turganidek, bu biron jamiyatda yoki davlatda ikki va undan ortiq tillarning faoliyat ko‘rsatishini bildiradi. Bugungi kunda qator davlatlarda ikki yoki ko‘p tillilik mavjud. Mazkur hodisalarni Rossiya, Afrika mamlakatlari, Belgiya, Gana, Hindiston, Kanada, Paragvay kabi davlatlarda kuzatish mumkin. Masalan, Rossiyada rus tili bilan birga boshqird, tatar, yoqut, buryat, osetin kabi tillar qo‘llaniladi.

Demak, ikki tillilik va ko‘p tillilikdan farqli o‘laroq, diglossiya ikkita mustaqil tilni yoki bir tilning turli subkodlarini bilishni ifodalaydi. Bu tillar va subkodlar vazifasiga ko‘ra taqsimlangan bo‘ladi. Agar gap ko‘p tilli jamiyatlar haqida borayotgan bo‘lsa, unda, masalan, rasmiy vaziyatlarda, chunonchi, qonunchilik, ish yuritish, davlat tashkilotlari orasidagi yozishmalarda rasmiy til yoki davlat tilidan foydalaniladi; maishiy, kundalik hayot va oilaviy muloqot sharoitlarida esa rasmiy maqomga ega bo‘lmagan boshqa tillar va subkodlardan foydalaniladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Diglossiya ham ikki tillilikka o'xshaydi. Biroq diglossiya muayyan til jamoasiga mansub shaxsningu qarashli bo'lgan tilning turli shevalari o'rtasida muloqotga kirisha olish imkoniyatini bildiradi. Shuningdek, shaxsning o'z tilining adabiy hamda uning bir or-bir hududiy (sheva) shakllarida muloqotga kirisha olishi ham diglossiyaning amaldagi ko'rinishlaridan biri sanaladi. Diglossiya ikki tillilikka qaraganda keng va faol tarqalgan sotsiolingvistik hodisadir. Umumta'lim maktablari adabiy tilni targ'ib qiluvchi, uni o'quvchilar ongiga majburan va rasmiy tarzda singdiruvchi ta'lim-tarbiya maskani hisoblanadi. Bunday sharoitda har bir o'quvchi ham o'z tilining adabiy shaklida, ham mahalliy shaklida muloqot qiladi. Bu jarayon diglossiyaning ommaviy xarakteriga misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, diglossiya sotsiolingvistikaning muhim va asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, til va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Ushbu hodisa orqali jamiyatda tilning funksional jihatdan tabaqalanishi, ya'ni til shakllarining muayyan kommunikativ vaziyatlarga mos holda qo'llanishi izohlanadi. Diglossiya tilning faqat lingvistik tizim emas, balki ijtimoiy hodisa ekanini yaqqol namoyon etadi.

Diglossiya tushunchasi tilning rasmiy va norasmiy shakllari, adabiy til va sheva, yozma va og'zaki nutq o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu hodisaning mavjudligi jamiyat a'zolarining nutqiy xulq-atvori, til tanlash mezonlari va kommunikativ strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, diglossiya tilning ijtimoiy mavqeini belgilash, nutq madaniyatini shakllantirish hamda til normalarining barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlarda diglossiyani o'rganish til siyosati, ta'lim tizimi va ommaviy kommunikatsiya sohalarida amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, ko'p qatlamli va ko'p madaniyatli jamiyatlarda diglossiya hodisasi tilning funksional imkoniyatlarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Shu bois diglossiya masalasini izchil va tizimli o'rganish sotsiolingvistikaning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdialiyev A. O'zbek sinxron sotsiolingvistikasi. – Toshkent.: 2019
2. Berdialiyev A, Turdibekov M. Sotsiolingvistika. – Toshkent.: Nodirabegim, 2022.
3. Elova D, Safarova G. Sotsiolingvistika. – Toshkent.: 2021.
4. Usmanova Sh, Bekmuxsmmedova N, Iskandarova G. Sotsiolingvistika. – Toshkent.: Universitet, 2014.

